

**FRAZELOGIZMLARNING KOMMUNIKATIV-USLUBIY IMKONIYATLARI****Komilova Umidaxon Kaxramon qizi***Andijon davlat pedagogika instituti, O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi 2-bosqich magistranti.***M.B.Qosimova***Andijon davlat pedagogika instituti, o'zbek tili va adabiyoti kafedrası
f.f.n. dotsent.*

Annotatsiya: *Til sistemasida insonning tug'ilishi, o'sish davri, shuningdek, uning o'limiga tegishli leksemalar mavjud. Ana shu lug'aviy ifodalar nutqiy jarayonda ma'lum urf-odatlar, irim-sirimlar natijasida ayrim frazeologik birikmalarga almashadi. Tilda bunday frazeologik birikmalarni o'rganish esa, o'zbek xalqi tarixi, madaniyatining lisoniy imkoniyatlarini ochish va muayyan xulosalar berish imkonini yaratadi. Maqolada frazeologik birliklarning kommunikativ-uslubiy imkoniyatlari badiiy asarlardan misollar keltirish orqali izohlab berilgan.*

Kalit so'zlar: *frazeologizmlar, nutq uslublari, ekspressiv-emotsional bo'yoqdorlik, obrazlilik, funksional-uslubiy bo'linishi, uslubiy nollar.*

KIRISH

Tilning frazeologik birliklari mislsiz til hodisasi bo'lib, ular u yoki bu xalqning hayot tarzini, mentalitetini namoyon etadi. O'zbek tilining frazeologik birliklari o'zbek xalqining psixologik, fiziologik, madaniy-ma'rifiy. Lingvokulturologik jihatlarni namoyon etadigan ko'p qirrali va ko'p qatlamli mental tuzilmadir.

Xalqlarning milliy o'zligini anglashi, ong va tafakkurdagi o'zgarishlarning tildagi in'ikosi, til hamda madaniyatning o'zaro munosabati tadqiqi masalalari dunyo tilshunosligida inson omilini lingvomadaniy jihatdan o'rganishda katta ilmiy qiymatga ega faktorlar ekanligi alohida e'tirof etiladi. Zero, til va madaniyat o'rtasidagi munosabatlarni inson, til va madaniyatning o'zaro biri biriga ta'siri va aloqasi zamirida yetarli darajada tushunib talqin qilish mumkin. Frazeologik birliklarning lisoniy tabiati ularni antroposentrik paradigma doirasida hosil bo'lish, voqelikni kognitiv mexanizmlar yordamida anglash va ifodalash, mavhum predmetlarni konkret predmetlarga tenglashtirish masalalarini atroflicha tadqiq etishga ko'maklashadi hamda mavzuning dolzarbligini belgilab beradi.

MUXOKAMA VA NATIJALAR

Frazeologiya tilning alohida mustaqil birligi XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab maxsus o'rganib kelinmoqda. Bu yo'nalish shveysariyalik olim Sh.Balli nomi bilan bog'liq¹⁵². Shuningdek, frazeologiya bo'yicha ilmiy-tadqiqot ishlarining takomiliga yevropa frazeologlaridan T.Matesheich, F.Stender, A.Levitskiy, V.Aytsmanda, xususan, rus olimlaridan V.Vinogradov, N.Amosova, B.Larin, A.Kunin,

¹⁵² Балли Ш. Французская стилистика. -М., 1961.



o'zbek frazeologlaridan Sh.Rahmatullayev, M.Umarxo'jayev, E.Begmatov, A.Mamatov, B.Yo'ldoshevlar munosib hissasini qo'shganlar.

Tildagi ko'pgina iboralar uchun ekspressiv-emotsional bo'yoqdorlik ajralmas xususiyat hisoblanadi, shuningdek, iboralarning asosiy qismi uslubiy jihatiga ko'ra neytral hisoblanadi. Chunki ibora yordamida u yoki bu predmet, hodisa nomlanibgina qolmasdan, o'sha predmet yoki hodisaga, shaxsga so'zlovchining ekspressiv munosabati ham ifodalanadi. Masalan, tilimizda xursandlikni "boshi ko'kka yetdi", "tishining oqini ko'rsatdi" iboralari bilan ifodalash mumkin. Masalan: 1) *Qudasining bu yaxshiligidan Mirvalining boshi ko'kka yetkandek bo'ldi*¹⁵³. 2) *Ha, battol, to'ningni-ku o'zgartiribsan, dilingni also o'zgarmaydi, o'lganingning kunidan tishingning oqini ko'rsatasan: bilib turibman, ichingda yig'layapsan*¹⁵⁴. Yuqoridagi birinchi gapda qatnashgan ibora ijobiy baho ottenkasini bildirsa, keyingi gapdagi ibora salbiy ma'no ottenkasini ifodalaydi.

Umuman olganda, iboralarning ma'no tuzilishi so'zlikiga nisbatan ancha murakkab, chunki iboradagi ma'no munosabatlari bilan uning komponent tarkibi o'rtasida katta uzilish, nomuvofiqlik mavjud.

Iboralar so'zlardan farqli holda reallikdagi muayyan voqea-hodisani faqat ifodalash, nomlash uchun emas, shu bilan birga, unga nisbatan modal munosabatni ifodalash maqsadida yuzaga keladi. Tildagi iboralarning asosiy qismi semantik jihatdan insonga, uning biror xatti-harakatini izohlashga qaratilgan: ular insonning fizik, psixologik, axloqiy-etik, intellektual xususiyatlarini baholaydi, insonning ijtimoiy holatini, kasbini, yoshini, hayotiy tajribasini, qarindoshlik aloqalarini xarakterlaydi. Shuningdek, voqea va hodisalarni ifodalovchi ko'pgina frazeologik birliklar ham baholash ottenkasiga ega. Shu sababli iboralarning semantik strukturasi qo'shimcha konnotativ element ishtirok etadi. Bu element iboraning predmet-logik (nominativ-mantiqiy) ma'nosiga emotsional-ekspressiv bo'yoqdorlik yuklaydi.

Boshqa tillarda bo'lganidek, o'zbek tilida ham frazeologik birliklarning asosiy qismi (75 foizi) funksional-uslubiy jihatdan muayyan nutqiy aloqa doiralarida qo'llanish imkoniyatiga ega. Ayrim iboralar adabiy-kitobiy uslublarda qo'llana olish xususiyati bilan ajralib tursa, boshqalari adabiy-og'zaki, maishiy-so'zlashuv doiralarida qo'llanilishi bilan xarakterlanadi¹⁵⁵. Shunga muvofiq, kitobiy va so'zlashuv frazeologizmlari va oddiy so'zlashuv frazeologizmlariga bo'linadi. Iboralarning bunday uslubiy tiplari bir-biridan miqdoriy va sifat jihatidan farqlanadi.

Frazeologik birliklarning asosiy qismi uchun muayyan baholash ottenkasi xarakterli bo'lgani uchun, emotsionallik ularning doimiy belgisi bo'lib qoladi. Masalan, "yuragi shuv etib ketdi" iborasi normativ qo'llanishda ijobiy baho nozikligiga ega bo'lib, "bir lahza ich-ichidan qo'rqish aralash hayajonlanmoqda" ma'nosini ifodalaydi¹⁵⁶. Said Ahmadning "Jimjitlik" romanida bu ibora "yuragi orqasiga tortib

¹⁵³ Said Ahmad. Jimjitlik, - Toshkent, 2021. 130-bet.

¹⁵⁴ O'sha asar, 265-bet

¹⁵⁵ Yo'ldoshev B. Frazeologik uslubiyat asoslari. – Samarqand, 1998. 46-bet.

¹⁵⁶ Rahmatullayev Sh. O'zbek tilining frazeologik lug'ati. – Toshkent: 1992, 320-bet



ketmoq" o'xshash varianti bilan qo'shilgan, kontaminatsiyaga uchragan holda qo'llanib, Tolibjonning ichki hayajoni, qo'rqishi, hadiksirashini ifodalagan: "*Birdan yuragi shuv etib orqaga tortib ketdi. Singlisi boshqa yoqqa ko'chib ketgan bo'lsa-ya*"¹⁵⁷.

Xuddi shuningdek, "ko'zi o'ynaydi", "og'zi ochilib qolmoq", "yoqasini ushlamoq", "hang-mang bo'lib qolmoq", "o'zini qo'yarga joy topolmaslik", "miyasi g'ovlab ketmoq", "yeti uxlab tushiga kirmaslik", "ko'zi olma-kesak termoq" kabi frazeologik birikmalar ham hayratlanish, taajjublanish ottenkalarini ifodalaydi.

Shu bilan birga, tilda nutqiy vaziyat bilan bog'liq holda o'z uslubiy bo'yoqdorligini o'zgartiradigan frazeologik birliklar ham bor. Masalan, "xudo ursin", "xudo bir asradi", "xudo yarlaqagur", "yo'l bo'lsin", "yo'lga solmoq" singari frazeologik birliklar ham ijobiy, ham salbiy ma'no nozikliklarini ifodalash xususiyatiga egadir. Masalan, adabiy tilda "bayt-g'azal o'qimoq" iborasi bo'lib "dard-xasrat bayon qilmoq" ma'nosini ifodalaydi¹⁵⁸. Bu ibora Said Ahmadning "Ufq" trilogiyasida Nizomjon va Dildor o'rtasidagi sevgi tarixini qisqa va ixcham formada ifodalash uchun qo'llanilgan: "*Shu oqshom Nizomjon diliga tugilib yotgan chigilni yechib tashladi. Shundan keyin qancha baytu g'azallar o'qildi. "To o'lguncha!" degan ahdu paymonlar bo'ldi*"¹⁵⁹. Abdulla Qahhorning "Sinchalak" asarida esa "baytu g'azal o'qimoq" iborasining "baytu g'azal aytmoq" variantidan foydalanilgan va bu ibora salbiy ma'no nozikligini ifodalash uchun bo'ysundirilgan edi: "*Zulfiqorovni xotini uyidan xaydab yuboribdi va Qalandarovning nomini aytmagan bo'lsa ham, "suyangan tog'i" sha'niga qancha baytu g'azallar aytibdi*"¹⁶⁰.

Tilshunos olimlar frazeologik birliklarning funksional-uslubiy bo'linishi(tarmoqlanishi) haqida gap ketganda ko'pincha ularni birlik-so'zlar singari uslublararo, kitobiy, so'zlashuv va oddiy so'zlashuv tiplariga ajratadilar. Bunda frazeologik birliklarning so'zlardan farqli holatdagi qo'llanish xususiyatlari to'la hisobga olinmagan ko'rinadi.

XULOSA

Yuqoridagilardan kelib chiqib, xulosa o'rnida shuni aytishimiz mumkinki, o'zbek tilidagi iboralarning muayyan qismi nutqiy vaziyat bilan bog'liq holda ekspressiv-baho bo'yog'ining turg'un emasligi bilan xarakterlanadi. Ayrim iboralarning funksional-uslubiy bo'yog'i ham o'zgaruvchan, lekin bu holat nutqiy vaziyat bilan emas, balki tilning tarixiy taraqqiyoti, o'zgaruvchanligi bilan aloqadordir. Shu bilan bog'liq holda frazeologiya doirasida funksional jihatdan muayyan uslubga xoslanmagan frazeologizmlar mavjud. Lekin ularni uslubiy jihatdan neytral yoki uslublararo deb tasnifalab bo'lmaydi, chunki ular ekspressiv-baho bo'yog'idan mahrum bo'lgan "uslubiy nollar" emas. Ana shu xususiyati bilan frazemalar adabiy til leksikasining yadrosini tashkil etuvchi neytral, uslublararo leksikadan, ya'ni funksional jihatdan xoslanmagan so'zlardan farq qiladi.

¹⁵⁷ Said Ahmad. Jimjitlik, - Toshkent, 2021. 5-bet.

¹⁵⁸ O'zbek tilining izohli lug'ati, ikki tonlik, I tom. -M.1981. 632-bet.

¹⁵⁹ Said Ahmad. Jimjitlik, - Toshkent, 2021. 242-bet.

¹⁶⁰ Abdulla Qahhor. Sinchalak. -Toshkent, 1982. 107-bet.



LIST OF REFERENCES:

1. Abdulla Qahhor. Sinchalak. -Toshkent, 1982.
2. Балли Ш. Французская стилистика. -М., 1961.
3. Qosimova M. Badiiy nutq individualligini lingvistik xususiyatlari (Tog'ay Muroq asarlari asosida): fil.fan nomz. Diss.. T. 2007.
4. Rahmatullayev Sh. O'zbek tilining izohli frazeologik lug'ati. – T.: O'qituvchi. 1978.
5. Said Ahmad. Jimjitlik, - Toshkent, 2021.
6. Yo'ldoshev B. Frazeologik uslubiyat asoslari. – Samarqand, 1998.
7. O'rinboyev B., O'rinboyev D. Hozirgi o'zbek tilining so'zlashuv uslubi. – T.: Fan. 1991.